

KASBIY FAOLIYATGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI

Ulug`ova Shahlola Musliddinova,
dotsent, psixologiya fanlari nomzodi,
Buxoro davlat universiteti, Psixologiya va sotsiologiya kafedrası
<https://orcid.org/0000-0002-2436-2116>

Annotatsiya: maqolada tadbirkor shaxsida bozor munosabatlariga moslashuvining ijtimoiy-psixologik mexanizmlari to'g'risida so'z boradi. Ijtimoiy-psixologik moslashuv mexanizmlari to'g'risidagi adabiyotlar ilmiy tahlili keltirilgan. Moslashuv, himoya mexanizmlari yoritib berilgan. Shaxsning ikkilamchi kasbiy faoliyatga ijtimoiy-psixologik moslashuvi mexanizmlari ochib berilgan.

Tayanch so'zlar: tadbirkorlik, konstruktiv mexanizmlar, ikkilamchi kasbiy faoliyat, moslashuv, bozor munosabatlari.

МЕХАНИЗМЫ АДАПТАЦИИ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Улугова Шахлола Муслиддиновна,
доцент, кандидат психологических наук,
Бухарский государственный университет, кафедра психологии и социологии

Аннотация: В статье рассматриваются социально-психологические механизмы адаптации к рыночным отношениям в личности предпринимателя. Представлен научный анализ литературы о механизмах социально-психологической адаптации. Выделены механизмы адаптации, защиты. Раскрыты механизмы социально-психологической адаптации личности к вторичной профессиональной деятельности.

Ключевые слова: предпринимательство, конструктивные механизмы, вторичная профессиональная деятельность, адаптация, рыночные отношения.

MECHANISMS OF ADAPTATION TO PROFESSIONAL ACTIVITY

Ulugova shahlola Musliddinova,
associate professor, candidate of psychological sciences,
Bukhara State University, Department of psychology and sociology

Annotation: The article discusses the socio-psychological mechanisms of adaptation to market relations in the personality of an entrepreneur. A scientific analysis of the literature on the mechanisms of socio-psychological adaptation is presented. Mechanisms of adaptation and protection are highlighted. The mechanisms of socio-psychological adaptation of the individual to secondary professional activity are revealed.

Keywords: entrepreneurship, constructive mechanisms, secondary professional activity, adaptation, market relations.

Maqsadga erishish yo'lida boshdan kechiradigan vaziyatlardan tashqari bo'lgan muammoli vaziyatlarda, moslashuv konstruktiv mexanizmlar (anglash jarayoni, maqsadga intilish, maqsadning qo'yilishi, konform xulq-atvor) orqali amalga oshiriladi. Bir qator ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ichki va tashqi to'siqlardagi vaziyatlarda, moslashuv, himoya mexanizmlari (rad qilish, reaksiyani shakllantirish, aniqlashtirish, identifikatsiya, bosim o'tkazish, yumor va hokazo) orqali amalga oshiriladi.

Tahlillarga qaraganda, konstruktiv mexanizmlar ijtimoiy hayot sharoitlarini adekvat holda vaziyatni baholash, voqeliklarni analiz, sintez va prognoz qilish, faoliyat oqibatlarini anglash imkoniyatlari orqali bilishga yordam beradi.

Mutaxassislar ikkilamchi kasbiy mehnatga moslashishning psixologik asoslarini tadqiq etishar ekan, insonni o'rab turgan muhit bilan o'zaro faol tarzda munosabatga kirishishida moslashuv jarayoni sodir bo'ladi, degan umumiy xulosaga kelishadi.

Fikrimizcha, bozor munosabatlariga kirishayotgan paytda, tadbirkorlarning yangi (ikkilamchi) mehnat (kasbiy) faoliyatiga kirishishi, ularning organizm va psixikalarining moslashuviga nisbatan o'zlarini o'rganmagan tashqi va ichki mehnat omillariga qarshi reaksiyani namoyon etishi mumkin.

Rus olimi V.N. Drujinin fikr-mulohazalarini rivojlantirib hamda olib borilgan nazariy-ilmiy izlanishlarga ko'ra, yangi faoliyat turiga bo'lgan moslashuv – bu insonning o'z (ikkilamchi) kasbini puxta egallash yo'lidagi samarali shaxsiy, axborotlar, kuch-quvvat tizimida qayta qurilishi va qayta moslashishidir, deb ta'riflash mumkin.

Adabiyotlar tahliliga tayanib, shu o'rinda biz, o'zgaruvchan olamda ikkilamchi kasbiy faoliyatga bo'lgan moslashuv – bu subyektning mehnat jarayonida yangi faoliyat turining o'ziga xos xususiyatlariga faol moslashishi demakdir, deb ta'riflaymiz.

E.A. Klimovning fikricha, subyektning mehnatdagi faolligi kasbiy, jumladan, kasbiy moslashuv jarayonining samarali kechishiga olib keladi, bunda subyektning kasb muhiti qanday bo'lishidan qat'iy nazar, talab va imkoniyatlarni qo'yilishida ham namoyon bo'lishi mumkin. Muallif tadqiqotlari natijasiga tayanib, insonning mehnat faoliyatiga moslashuvi quyidagi ikkita bosqichda amalga oshadi, deb hisoblaydi:

Birlamchi moslashuv – me'yorlashuv davri yoki kutilgan dezadaptatsiya.

Ikkilamchi moslashuv – yosh davrlariga xos tarzda moslashuv imkoniyatlarining pasayishi.

G.A. Suvorovning e'tirof etishicha, moslashuv jarayoni uzluksiz bo'lib, u «mehnat subyektini – kasbiy muhit» tizimi mutanosibligida faollashishi mumkin. U moslashuv jarayonini uchta davrga bo'ladi:

- 1) adaptiv bosim;
- 2) me'yorlashuv;
- 3) moslashuvning tugashi.

Muallifning fikricha, bu davrlar subyektning mehnat va ishlab chiqarish muhiti talabiga muvofiq holda xulq-atvorida, axborotlar tizimida hamda faolligida namoyon bo'ladi.

A.A. Nalchadjyan shaxsning ijtimoiy-psixologik moslashuvi muammolarini o'rganar ekan, kasbiy moslashuv ishlab chiqaruvchanlik, fiziologik, psixologik va sotsiologik formalarining ko'nikish jarayoni va moslashuvchanlik belgilari omillarini nazorat qilinishida namoyon bo'ladi, degan to'xtamga keladi.

A.I. Kitov iqtisodiy psixologiyaga doir tadqiqotlar o'tkazib, kasbiy moslashuv (ishlab chiqarish) samaradorlikning oshishi, mehnat sifati va bezararligi, ishdagi ijodiylikning yuzaga chiqishi va o'ziga bo'lgan ishonchning oshishi bilan xarakterlanadi, degan xulosani bildiradi.

A.L. Juravlev tashkiliy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida hamkorlik faoliyatini tadqiq etar ekan, psixologik moslashuv o'ziga bo'lgan ishonch funksiyasining oshishida, faoliyatdagi yoqimsiz bo'lgan hatti-harakatlarga nisbatan emotsional qat'iylik omillarida, o'ziga xos tarzda kasbiy muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarni engib o'tishida namoyon bo'lishini alohida e'tirof etadi.

Rus olimi N.V. Drujinin esa mehnatga moslashuv va kasbiy tayyorgarlik jarayonlarini o'zaro bog'lab o'rganadi hamda tadqiqotlari natijasiga ko'ra, kasbiy moslashuv jarayonini quyidagi ikkita strategiyaga bo'ladi:

1) konformlik, kasbiy muhit me'yorlariga javob berishga intilish, rahbar va jamoadoshlarining maslahatlaridan foydalanish, shaxslararo munosabatlarda rozilikka erishish va hokazo;

2) ijodiylik, o'z mustaqilligiga erishish uchun harakat qilish, ish usulining yanada ma'qulroq yo'llarini topish, mehnatni tashkil etish va mehnat qurollarini takomillashtirish va hokazo.

Psixologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, moslashuv strategiyasini tanlash nerv tizimi muvozanatiga bog'liqdir. Neyrodinamika jarayoniga xos xususiyatlarning egiluvchan, past darajasini namoyon qiluvchi shaxslar, odatda, ijtimoiy muhitga his-hayajon irodasi komponenti orqali moslashadilar. Yuqori darajadagi egiluvchanlikka ega shaxslar kommunikativ xarakteri asosida hamda xulq-atvorning ma'lum bir ko'rinishini namoyon qilish orqali moslashadilar.

Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, respondentlar tomonidan "Psixologik moslashuvda o'zini-o'zi baholash" metodikasi orqali olingan natijalardan ma'lum bo'lishicha, tadbirkorlarning yangi mehnat yoki ikkilamchi kasbiy faoliyat(i)ga ijtimoiy-psixologik moslashuvini besh xil: quyi, o'rtachadan past, o'rta, o'rtachadan yuqori, yuqori darajalarga bo'lish mumkin.

1-jadval

Ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlik darajasini aniqlashning o'zini-o'zi baholash strategiyasiga asoslanganligi (n=100)

№	Oraliq ballar ko'rsatkichi	Ijtimoiy-psixologik moslashuv darajalari	XK-SSr	Tt
			n=50	n=50
1.	1 ball dan 2 ball gacha	quyi daraja	8	19
2.	3 ball dan 4 ball gacha	o'rtachadan past daraja	12	12
3.	5 ball	o'rta daraja	18	15
4.	6 ball dan 7 ball gacha	o'rtachadan yuqori daraja	5	2
5.	8 ball dan 10 ball gacha	yuqori daraja	7	2

Tadqiqotdan aniqlanishicha (1-jadval), xizmat ko'rsatish va servis sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar-«XK-SS» guruhiga mansub sinalluvchilarda ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlikning o'rtacha darajasi kuzatilib, mos ravishda bu ko'rsatkich 36 %ni tashkil etgan. Ularning nazarida bozor munosabatlari sharoitida yangi mehnat yoki ikkilamchi kasbiy faoliyatni tanlashga turtki beruvchi omillar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davrida iqtisodiy sotsializatsiyaga va jamiyatni sanoatlashtirishga bo'lgan xatti-harakatlarni kuchaytirib, tadbirkorlarni bozor iqtisodiyoti sharoitida faolligining o'ziga xosligini belgilab beradi. Tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan talabalar-«ТТ» guruhiga mansub sinalluvchilarning ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlikni quyi darajasini (38 %) namoyon etishi, o'z navbatida, boshqa guruh a'zolariga nisbatan anchagina yosh, ikkilamchi kasbiy faoliyat sohasida ularga nisbatan kamroq tajribaga ega va mehnatdan tashqari o'qish faoliyati bilan ham shug'ullanadilar. O'qish faoliyati esa o'z navbatida shaxslararo munosabatlar zichligini va ahamiyatlili (moslashish)ni e'tirof etadi. Natijalarning umumlashgan tahlili shuni ko'rsatayotgiki, mazkur guruh vakillari jamoada, o'z hamkasabalari va yaqinlari nigohida hurmatli va ardoqli bo'lish istagi bilan yashaydilar.

Tadbirkorlarning yangi mehnat yoki ikkilamchi kasbiy faoliyat(i)ga ijtimoiy-psixologik moslashuvini besh xil: quyi, o'rtachadan past, o'rtacha, o'rtachadan yuqori, yuqori darajalarga bo'lish mumkin.

Fikrimizcha, yuqorida ajratilgan darajalar bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlarning:

- a) o'zaro munosabatlarga kirishidagi holati;
- b) mehnat faoliyati davomida uzoq muddatli tashqi va ichki konfliktlarga bormasligi;
- v) sotsiogen ehtiyojlardan qoniqishi;
- g) jamiyat (ba'zan referent bo'lmagan guruh) tomonidan taqdim etilishi mumkin bo'lgan rolli kutilmalarga tayyor bo'lishi;
- d) ijodiy qobiliyatlarini mustaqil va o'ziga ishongan holda namoyon qila olishini aniqlashda qo'l keladi hamda faol moslashuv ko'lamini belgilab beradi.

Tadbirkorlarning bozor iqtisodiyoti sharoitiga faol moslashuviga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, mexanizmlar, jihatlarni tadqiq etish va ikkilamchi kasbiy moslashuv samaradorligini ta'minlovchi shaxslilik hamda ijtimoiy-psixologik xususiyatlar shakllanishini o'rganishda «shaxsga faoliyatli yondashuv» nazariyasi g'oyalari o'ziga xos asos bo'ladi.

Resotsializatsiya jarayonida tadbirkorlardagi kasbiy ustanovkalar shakllanishini «o'zini-o'zi anglash konsepsiyasi» nuqtai nazaridan o'rganish maqsadga muvofiq sanaladi hamda uning asosida ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar inson ontogenezi davomida shaxs tomonidan jamiyatdagi mavjud normativlar, ustanovkalar orqali o'zlashtirilishi va ushbu qadriyatlarni anglash esa o'zini-o'zi anglash jarayoni orqali amalga oshishi g'oyasi yotadi.

Adabiyotlar tahliliga asoslanilganda, ya'ni bozor munosabatlarida ijtimoiylashuv tushunchasi inson shaxsining vaziyatga faol moslashuvi va individuallashuvi jarayonlarini o'zaro bir-biri bilan bog'laydi:

bozor munosabatlariga asoslanadigan jamiyat sharoitlariga tadbirkorlarning faol moslashuvi yoki undan ajralib chiqishi ijtimoiylashuv jarayonini mazmunini tashkil qiladi. SHu bois, moslashuvni – subyekt va ijtimoiy muhitning o'zaro faol yaqinlashuv jarayoni va natijasidir, deb ta'riflash maqsadga muvofiq sanaladi.

bozor munosabatlariga kirishayotgan bir paytda, tadbirkorlarning yangi (ikkilamchi) mehnat (kasbiy) faoliyatiga kirishishi ularning organizm va psixikalarining moslashuviga nisbatan o'zlari o'rganmagan tashqi va ichki mehnat omillariga qarshi reaksiyani namoyon etadi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda tadbirkorlar mehnat faoliyatining ijtimoiy mohiyatini tushunish, bozor iqtisodiyoti ta'sirida ulardagi ijtimoiy xususiyatlarning shakllanishi va o'zgarishi mexanizmlarini bilish hamda ularni zamonaviy usullarda tadqiq etish ijtimoiy psixologiya sohasining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Суворова Г.А. Психология деятельности: Учеб. пособие для студентов психологических и педагогических вузов. – М.: ПЕРСЭ, 2003.
- 2.Налчаджян А.А. Социально-психологическая адаптация личности. – Ереван.: 1988.
- 3.Китов А.И. Экономическая психология.– М.: Экономика, 1987.
- 4.Социально-психологическая динамика в условиях экономических изменений/РАН, Ин-т психологии; Отв. ред. А.Л. Журавлев, Е.В. Шорохова, В.А. Хашенко и др. – М.: ИП РАН, 1998.
- 5.Улугова Ш.М., Акрамов А.А. “Тадбиркорлик шахси фаолиятида иқтисодий жараёнлар”. “Innovative activity in the education system – guarantee of quality and effectiveness”. Collection of Papers from II International Scientific Conference. Uzbekistan. 2018.В - 156-160.